



## XORIJY TILLARNI O`QITISHDA DIDAKTIK O`YINLARNING AHAMIYATI

**Abdullayeva Maxmuda Shukrillo qizi – o`qituvchi,**

Roman-german filologiyasi,

Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи,  
O`zbekiston Davlat Jahon Tillar Universiteti,  
TOSHKENT, O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

mabdullahayeva@uzswlu.uz,

### **Annotatsiya:**

Maktablarda, kasb-hunar kollejlarida hamda litsey singari muassasalarda xorijiy tillarni o`qitish jarayonida didaktik o`yinlarning qanchalar samarali yo`lga qo`yilganligi borasidagi fikrlar bayon qilingan. Bundan tashqari, muallif ushbu maqola orqali xorijiy tillar bilan didaktik o`yinlarning bir-biriga uyg`un tarzda amalga oshirilishi kelajak yoshlarining til o`rganishga bo`lgan intilishini, qiziqishini hamda ishtiyoyqini sezilarli darajada yuzaga chiqarishdagi bosh omil sifatida xizmat qilishi mumkinligi to`g`risidagi qarashlari atroflicha e`tirof etilgan. Jumladan, xorijiy tillar bilan didaktik o`yinlarning bir-biriga hamohang tarzda olib borilishining dars jarayonidagi ko`rinishi ham ushbu maqolada o`z ifodasini topgan.

### **Kalit so`zlar:**

Xorijiy tillar, didaktik o`yinlar, pedagogik mahorat, interaktiv metodlar.

Ma`lumki, jadal rivojlanib borayotgan shiddatkor zamin nafaqat bir insondan, nafaqat bir jonzotdan, boringki butun bir koinotdan dunyoning qanchalar tubsiz hamda chegara bilmas imkoniyatlarga boy ekanligining yaqqol timsoli desak aslo adashmagan bo`lamiz. Zero, inson aql-u zakovati, teran salohiyati va uning chegara bilmas kuchli kamoloti ana shu shiddatkor zaminning farzandlariga yaxshilik hamda o`tkir zehn urug`larini ekib kelayotgani ham asl haqiqatdir. Shuni alohida e`tirof etmoq darkorki, bugungi kunda, ayniqsa, davlatning deyarli barcha sohalarida xorijiy tillarga bo`lgan e`tibor, munosabat hamda talabning qanchalar yuqori darajada ekanligi hech birimizga sir emas, albatta.

Didaktik o`yinlarni tanlash jarayonida, avvalambor, o`rganuvchilar, ya`ni o`quvchilarning psixologik holati, nutqi, bilish imkoniyatlari, tengdoshlari hamda kattalar bilan murosaga kela olish tajribasining har jihatdan o`sishiga ko`mak berishi, o`quv faoliyati bilim hamda ko`nikmalarni shakllantirishi, o`quv mashg`ulotlari hamda xorijiy tillarni o`rganishga bo`lgan qiziqishini uyg`otishi, natijalarini tahlil qilish, bir-biri bilan taqqoslash, mavhumlashtirish, jamlashni o`rganishda o`quvchiga ko`mak berishiga e`tibor qaratishi darkor. O`yinlarni amalga oshirish jarayonida o`quvchining aqliy faoliyati, uning fanlarga nisbatan xatti-harakatlari bilan bog`liq bo`lishi lozim. [1]

Maktablarda, kasb–hunar kollejlarida hamda litsey singari muassasalarda xorijiy tillarni o`qitish jarayonida didaktik o`yinlarning qanchalar samarali yo`lga qo`yilishiga ko`maklashuvchi va qo`llanilishi maqsadida o`yinlar quyidagi talablar asosida amaliyatga tatbiq qilinishi lozim:

- ✓ *Har bir o`yin qatnashchilarining faolligi;*
- ✓ *Har bir o`quvchi uchun didaktik o`yinning ochiq namoyon bo`lishi;*
- ✓ *Muammolilik xususiyatiga ega ekanligi;*
- ✓ *O`yinning qiziqarliligi, ya`ni hissiy hamda rang–barang bo`lishi;*
- ✓ *O`yinning individualligi hamda jamoaviyligi;*
- ✓ *O`yinning bahs–munozaraga boyligi;*
- ✓ *Har bir qatnashchi uchun o`yinning natijaviy ahamiyatga ega ekanligi.*

Ushbu sanab o`tilgan talablar haqida qisqacha to`xtalib o`tsak nur ustiga a`lo nur bo`ladi. [2]

–Xohlagan didaktik o`yinning talab hamda tamoyillaridan biri *har bitta ishtirokchining faollik darajasi sanaladi*. Asosan, u o`yinga tayyorgarlik ko`rish jarayonida aks etishi zarur, o`yin mobaynida kuchayishi va yuqori cho`qqiga yetishi, xususan, natijalarni muhokama qilish vaqtida ham xuddi shunday yuqori darajani saqlagan bo`lishi talab etiladi.

– *O`yinning ochiq namoyon bo`lishi*–barcha qatnashchilar tomonidan o`yin qoidalarining tushunarli bo`lishi va uning istalgan bosqichida o`quvchilarga mos bo`lgan vazifalarni borligidir.

– *Muammolilik xususiyatiga ega ekanligi quyidagicha ifodalanadi*, xohlagan o`yinda muammoli vaziyatlar hamda ularga yechim topish uchun sharoit yaratiladi. Bunda har bir o`quvchi raqobat sharoitida muayyan maqsadga erishishga harakat qilib, musobaqa mobaynida paydo bo`ladigan turli muammoli vaziyatlarni yechish yo`llarini avtomatik tarzda rejalashtiradi.

– *O`yinning qiziqarliligi, ya`ni hissiy hamda rang–barang bo`lishi*, barcha bosqichlarda o`quvchilar bilish faolligini, shu bilan bir qatorda, o`yinga tayyorgarlik darajasi, keyingi tahlil jarayonlarining kuchaytirilishiga yo`naltirilgan. Eng quvonarlisi shuki, har bir o`quvchining bilish faolligini rivojlantirishga yordam beradi.

– *O`yinning individualligi hamda jamoaviyligi* – har bir o`quvchi uchun o`yinda muayyan rol topilishi darkor, bu rol uning shaxsiy xususiyatlarini maksimal tarzda amalga oshirishga, o`quvchiga o`zini ifoda etishga imkoniyat berish lozim. Ayniqsa, ushbu tamoyil orqali o`quvchi muayyan faoliyatda o`zidagi ustun xususiyatlarni ochish imkoniyatiga ega bo`ladi. Didaktik o`yinning jamoaviyligi esa har bir qatnashchining individualligiga barham bermasdan, keltirilgan muammoli vaziyatlarni yechish bo`yicha juftlik, jamoa, guruhlarda o`zaro faoliyatni amalga oshiradi.

– *O`yinning bahs–munozaraga boyligi* – didaktik o`yindagi eng asosiy harakatlantiruvchi kuch bo`lib hisoblanadi va bu kuch o`yinchilarning aqliy qobiliyatlarini katta miqdorda talab etadi.

– *Har bir qatnashchi uchun o`yinning natijaviy ahamiyatga ega ekanligi* – bunda har bir ishtirokchi hamda butun jamoaning faol ijodiy mahsuli sifatida ko`rsatiladi. Barcha jamoaviy musobaqalar singari jamoa faoliyati natijasi bevosita har bir o`yinchining hissasiga bog`liq bo`ladi. [3]

Shuni alohida ta`kidlab o`tmoq joizki, maktablarda, kasb–hunar kollejlarida hamda litsey singari muassasalarda xorijiy tillarni o`qitish jarayonida didaktik o`yinlarni tayyorlash hamda o`tkazish o`qituvchi uchun bir qancha murakkab vazifalarni ko`ndalang qo`yadi va ko`p vaqt ni talab qiladi. Didaktik o`yinning g`oyasi, dastlab mushkul va eng mas`uliyatli bosqichi sanaladi. G`oyalar quyidagicha bo`ladi:

- *Guruohni tanlash;*
- *Darsning mavzusini tanlash;*
- *Darsning turini tanlash;*
- *Vaqtning chegaralarini aniqlash;*
- *O'yinning turi va shaklini tanlash kabi jarayonlar kiradi.*

– Guruohni tanlash – bu jarayonda guruohning quyidagi xususiyatlariga: yo`nalishi, o`qitilish darajasi, ishga nisbatan layoqatliligi, tashkilotchiligi kabilar hisobga olingan holda tanlanadi. Bunda o`quvchilarning nafaqat tilga bo`lgan qiziqishini uyg`otish, balki o`qitish va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish darkorligini hisobga olish kerak.

– Darsning mavzusini tanlash – o`qituvchi o`yinni amalga oshirish uchun ixtiyoriy mavzuni tanlash huquqiga egadir. Yangi mavzuni tushuntirish uchun yoki o`tilgan mavzularni mustahkamlash uchun ham qo`llanilishi mumkin.

– Darsning turini tanlash – asosan, didaktik o`yinlar darsning barcha turlarida qo`llanilishi mumkin. Didaktik o`yinlarning muvaffaqiyatli tarzda bajarilishi, o`qituvchining didaktik o`yin turlari bilan ishlay olish malaksiga bog`liq bo`ladi. Shunisi ma`lumki, didaktik o`yinlar orqali o`tilgan mavzularni takrorlash va o`rgangan nazariy bilimlari hamda malakalarini nazorat qilishda qo`llanilishi mumkin.

– Vaqtning chegaralarini aniqlash – didaktik o`yinlarni amalga oshirishda ularni tayyorlash jarayoniga sarflanadigan vaqtini tushunishni anglatadi. Ya`nikim, o`yin to`liq dars mobaynida yoki bo`lmasa darsning ma`lum bir qismida, agar o`qituvchi hamda o`quvchilar istasa, butun dars davomida o`tkazilishi mumkin.

– O`yinning turi va shaklini tanlash – bu bir qancha faktorlarga bog`liq sanaladi, masalan, guruohning xususiyatlariga, o`quvchilarning yoshiga, darsning mavzusiga hamda o`quvchilarning qay darajada ushbu tillarga nisbatan bilish faoliyatiga ham bog`liqdir. [4]

Xulosa qilib shuni alohida ta`kidlash lozimki, xorijiy tillarni o`qitishda didaktik o`yinlarni tashkil etish hamda o`qituvchining roli juda ham muhimdir. O`yinning muvaffaqiyatli tarzda bajarilishi nafaqat o`qituvchiga, balki o`quvchilarning bilimi va ko`nikmasiga ham bog`liq tarzda namoyon bo`ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Kuhn M.R. and Stahl S. A. 1998, "Teaching children to learn a variety types of cultures: A synthesis and some questions". Journal of literature research, 30, page–504.
2. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер Ком, 1998. 688 с.
3. Clark. C. "Innovative Strategy: Concept cartoons. Instructional and learning strategies ". London –2000, page–45.
4. Barak. A. & Fisher. A. W. "Towards an Internet –Driven, theoretically Based". USA–2001, page–555.
5. Doring. A. "Effective teaching and learning at University: The use of cartoons as a teaching and learning strategy". Australia–2002, page–320.